e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/02wv9119

SIYOSIY TAFAKKURNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING TARIXIY-FALSAFIY ASOSLARI

Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, mustaqil tadqiqotchi.
e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0002-6202-2064

Annotatsiya.
Maqolada siyosiy tafakkur tushunchasining mazmun-mohiyati, uning jamiyat hayoti va davlat boshqaruvidagi ahamiyati hamda tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan dastlabki g‘oyaviy manbalari tahlil qilinadi. Antik davr falsafasi, diniy qarashlar, Markaziy Osiyoning qadimgi yozma yodgorliklari va Sharq mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy merosi misolida siyosiy tafakkurning axloqiy, huquqiy va ijtimoiy asoslari yoritiladi. Shuningdek, siyosiy tafakkur, siyosiy ong va siyosiy madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda ularning jamiyat siyosiy hayotidagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: siyosiy tafakkur, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, davlat boshqaruvi, huquqiy davlat, siyosiy savodxonlik, Avesto, Moniy, mazdakiylik, Sharq mutafakkirlari.

ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ПОЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Курбанбаева Мунаввара Козибаевна
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, самостоятельный соискатель.

Аннотация.
В статье анализируются сущность и содержание понятия политического мышления, его значение в общественной жизни и государственном управлении, а также первоначальные идейные истоки, сформировавшиеся в процессе исторического развития. На примере античной философии, религиозных воззрений, древних письменных памятников Центральной Азии и научно-философского наследия мыслителей Востока раскрываются нравственные, правовые и социальные основы политического мышления. Кроме того, рассматриваются взаимосвязь политического мышления, политического сознания и политической культуры, а также их роль в политической жизни общества.

Ключевые слова: политическое мышление, политическое сознание, политическая культура, государственное управление, правовое государство, политическая грамотность, Авеста, Мани, маздакизм, мыслители Востока.

HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF POLITICAL THINKING

Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Independent Researcher.

Abstract.
This article analyzes the essence and content of political thinking, its significance in social life and public administration, and the early ideological foundations that emerged throughout historical development. Drawing on ancient philosophy, religious beliefs, early written monuments of Central Asia, and the intellectual and philosophical heritage of Eastern thinkers, the study examines the moral, legal, and social foundations of political thinking. Furthermore, it explores the interrelationship between political thinking, political consciousness, and political culture, as well as their role in the political life of society.

Keywords: political thinking, political consciousness, political culture, public administration, rule of law, political literacy, Avesta, Mani, Mazdakism, Eastern thinkers.

Kirish. Davlatning fuqarolar bilan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy munosabatlari uning zimmasidagi vazifalarni qay darajada samarali bajarishi bilan chambarchas bog‘liq. Davlat fuqarolik xizmati boshqaruv tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, uning faoliyati fuqarolarda davlatga nisbatan ishonch, mansublik va sodiqlik tuyg‘ularining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilish ham davlat boshqaruvining asosiy vazifalaridandir. Bu jarayonda davlat xizmatchilarining siyosiy tafakkurini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy tafakkur masalasi faqat zamonaviy boshqaruv ehtiyojlari bilan cheklanmaydi. U qadimdan falsafiy, axloqiy va siyosiy ta’limotlarning diqqat markazida bo‘lgan. Antik davr faylasuflari, Sharq mutafakkirlari va diniy manbalarda

ISSN 3060-5059 (Online)

adolatli boshqaruv, hokimiyatning mas'uliyati, inson huquqlari hamda jamiyatdagi tartib masalalari turli nuqtayi nazardan yoritilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sharq siyosiy tafakkuri tarixini o'rganishda Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" va Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarlari muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Ularda davlat boshqaruvi, rahbar mas'uliyati va jamiyatdagi munosabatlarning siyosiy, huquqiy hamda axloqiy jihatlari yoritilgan. G'arbiy Yevropa tafakkurida esa Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Nikkolo Makiavelli, Tomas Gobbs va Jon Lokk kabi mutafakkirlarning qarashlari siyosiy hokimiyat va davlat boshqaruvi masalalarini tahlil qilishga zamin yaratgan.

Davlat xizmatchilarining siyosiy tafakkuri masalasi fuqarolarning siyosiy, huquqiy va ijtimoiy ongini rivojlantirish bilan uzviy bog'liq. Antik davrda Suqrot, Aflotun va Arastu; Sharqda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Homid G'azzoliy, Abu Hasan Ali ibn Muhammad al-Basriy al-Mavardiy, Ibn Xaldun, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlar bu masalaga doir turli yondashuvlarni ilgari surganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy va nazariy tahlil usullaridan foydalanildi. Siyosiy tafakkurga oid qarashlar muayyan tarixiy davr, diniy-falsafiy an'ana va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi. Manbalarni tahlil qilishda g'oyalarning mazmuni, adolat va hokimiyatga munosabati hamda siyosiy-ijtimoiy hayotga ta'siri asosiy mezon sifatida olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Siyosiy tafakkur hokimiyat, davlat, inson huquqlari va erkinliklariga oid masalalarni anglash hamda baholashga xizmat qiladigan g'oyalar va nazariyalar majmuasidir. Davlat va boshqaruv haqidagi dastlabki falsafiy qarashlar paydo bo'lganidan buyon u turli bosqichlarni bosib o'tdi, siyosiy institutlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi va hozirgi siyosiy jarayonlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib qoldi. Siyosiy tafakkur ijobiy yo'nalishda rivojlangan jamiyatda fuqarolarning siyosiy ongi va siyosiy madaniyati yuksalib, ular ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarda faol ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi.

Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikri Konstitutsiyaning siyosiy-huquqiy ahamiyatini ta'kidlaydi: "Xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi, inson huquq va erkinliklarining qonuniy kafolati bo'lgan, biz uchun ozod va obod hayot qurish yo'lini ochib bergan Konstitutsiyamiz bilan shu bois har qancha faxrlansak, g'ururlansak arziydi, albatta" [1; 197]. 2023-yil 30-aprelda bo'lib o'tgan referendum asosida Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahrirda qabul qilinishi va uning 65 foizi o'zgarganligi mamlakat aholisining siyosiy tafakkuridagi o'zgarishlarga ham turtki bo'ldi.

"Tafakkur" tushunchasi insonning voqelikni anglash va hodisalar o'rtasidagi aloqalarni aniqlash qobiliyati bilan bog'liq. Qur'oni Karimda tafakkurga da'vat etilishi fikrlashni ma'naviy va aqliy faoliyatning muhim qismi sifatida ko'rsatadi. Manbada Ra'd surasining 3-oyati quyidagicha keltiriladi: "U yerni yoyib, unda barqaror tog'lar va anhorlar qilgan, barcha mevalardan juft-juft qilgan Zotdir. U kechani kunduzga qoplaydir. Bunda, albatta, tafakkur qiluvchi qavmlar uchun oyat (belgi)lar bordir" [2; 214]. Mavlono Jaloliddin Rumiyga nisbat berilgan "Agar insonning tafakkuri oqsoq bo'lsa, aqli mahmadona bo'ladi" degan fikr ham tafakkur sifatiga alohida e'tibor qaratadi [3; 40]. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli va obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni sifatida izohlanadi. Tafakkur insonning atrof-muhit va ijtimoiy hodisalarni bilishiga, muhim bog'lanishlarni anglashiga, voqealarning rivoji va ehtimoliy oqibatlarini oldindan ko'ra olishiga imkon yaratadi [4; 134]. Demak, siyosiy tafakkur siyosiy hodisalarni shunchaki kuzatish emas, balki ularning sabablarini, o'zaro aloqalarini va jamiyat uchun oqibatlarini anglashni ham nazarda tutadi. Huquqiy va ijtimoiy davlat hamda erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish keng ommaning siyosiy savodxonligini talab qiladi. Demokratik tartib va tamoyillarni aholining siyosiy madaniyati, siyosiy ongi va tafakkurisiz mustahkamlash qiyin. Siyosiy ta'lim va fuqarolik ishtiroki jamiyatda loqaydlik, mutlaq hokimiyatga moyillik va anarxik munosabatlarning oldini olishga xizmat qilishi mumkin. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda siyosiy qarashlarning ratsionallashuvi va siyosiy tafakkurning dastlabki ko'rinishlari shakllana boshladi. K. Yaspers qayd etganidek, miloddan avvalgi IX–III asrlar oralig'ida Sharqda – Movarounnahr, Xitoy, Hindiston, Eron va Falastinda, G'arbda esa Yunonistonda siyosiy-huquqiy qarashlarni mujassam etgan madaniy markazlar deyarli bir vaqtda vujudga kelgan [5; 31]. Bu hol siyosiy tafakkur turli sivilizatsiyalarda o'ziga xos sharoitlarda rivojlanganini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo tarixida "Avesto" siyosiy, ijtimoiy va huquqiy qarashlarni o'rganish uchun muhim qadimgi yozma manbalardan biri hisoblanadi. Unda hokimiyatni boshqarishning axloqiy va huquqiy masalalari yoritilib, urush va mojarolar qoralanadi, tinch-totuv yashash va sulhparvarlik g'oyalari ilgari suriladi. Manbada quyidagi murojaatlar keltiriladi: "Yerni odil hukmdor, pokiza qalb va ezgu niyatlar bilan boshqarish kerak. Zolim hukmdorning boshqarishiga yo'l qo'yma!" hamda "Adolat tantana qilishi, yovuzlik yo'q qilinishi kerak" [6; 21–27]. Bu qarashlar siyosiy hokimiyatni adolat va axloqiy mas'uliyat bilan bog'laydi.

Milodiy III–IV asrlarda Moniy ta'limoti dualistik tasavvurlarni ilgari surdi. 216–276-yillarda yashagan Moniy ta'limotida "Ikki dunyo – zulmat va ziyo dunyosi" mavjudligi ta'kidlanadi: zulmat dunyosi adolatsizlik va zo'ravonlik bilan, ziyo dunyosi esa abadiylik va farovonlik bilan bog'lanadi. Ushbu ta'limotda zardushtiylik, buddizm, iudaizm va xristianlikdagi adolat tamoyillari birlashgani qayd etiladi. Davlat va jamiyat boshqaruvida adolat masalasi "Sug'd sutralari" va "O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari"da ham ko'zga tashlanadi [7; 24–33].

Mazdakiylik g'oyalari V asrdan VI asrning ikkinchi yarmiga qadar O'rta Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlar fonida shakllangan jarayonlar bilan bog'lanadi. Nizomulmulk "Siyosatnoma" ("Siyar ul-muluk") asarida yerga egalik qilish va ijtimoiy tabaqalanish bilan bog'liq munosabatlarni yoritadi. Mulkdor dehqonlar ta'siriga tushib, o'z yeridan ajralgan va ularning yerida ishlashga majbur bo'lgan kishilar "kadivar"lar, ya'ni ijaradorlar, erkin jamoa asosida dehqonchilik qilgan aholi esa "kashovarz"lar deb atalgan [8; 45–50]. Mazkur munosabatlar mulkiy tengsizlik va quyi tabaqalar huquqlarining

ISSN 3060-5059 (Online)

cheklanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. VI asrning birinchi choragida yuz bergan Mazdak qo‘zg‘oloni ijtimoiy adolat talablarining tarixiy ifodalaridan biri sifatida keltiriladi. Mazdakchilar “Z” harfi bilan boshlanadigan 4 narsani aholi o‘rtasida teng baham ko‘rishni yoqlaganlar: zamin (yer), zar (oltin boylik), zo‘rlik (kuch-hokimiyat) va zan (xotin) [9; 50–60].

A. Abdullayev talqinida: “Mazdakchilar g‘oyalaridan shuni tushunish mumkinki, ular ijtimoiy adolat tamoyilini birinchi o‘ringa qo‘yib, bunda yer-mulk, boyliklarni aholi o‘rtasida barobar taqsimlashni talab qilganlar. Ular davlat hokimiyati tomonidan fuqarolarning daxlsizligi va qonuniy huquqlarini himoya qilinishi, ayollar tengligini talab qilgan dastlabki oppozitsion siyosiy harakatni yuzaga keltirganlar. Ammo, o‘sha davrda mazdakchilar g‘oyalarini amalga oshirish ancha murakkab edi, chunki mavjud ijtimoiy va sinfiy tabaqalanish kuchayib, mulkiy tengsizlik avj olgan bir davr edi. Shu sababli mazdakchilar harakati hukmron tizim tomonidan bostirilib, ko‘pchilik mazdakchilar ommaviy qatl qilingan. Ammo bu harakatning g‘oyalari xalq orasida saqlanib, ma’lum bir muddat adolat yo‘lidagi kurashlarga xizmat qilgan” [10; 108].

XULOSA

Siyosiy tafakkurning tarixiy-falsafiy manbalari davlat boshqaruvi, adolat, axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy tenglik haqidagi qarashlar uzoq tarixga ega ekanini ko‘rsatadi. Antik davr falsafasi, diniy ta’limotlar va Markaziy Osiyoning qadimgi yozma merosi siyosiy hokimiyatni faqat kuch bilan emas, balki ma’naviy va huquqiy mezonlar bilan ham baholash zarurligini ilgari suradi. Mazkur manbalarni zamonaviy sharoitda o‘rganish siyosiy savodxonlikni oshirish, fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish va adolat tamoyillarini anglash uchun nazariy asos bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. – 7-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B. 197.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiy tarbiya. 1-juz. Poklanish. – Toshkent: Sharq NMAK, 2008. – B. 214.
3. Muhammad Iste’lomiy. Masnaviyga muqaddima / fors tilidan Ja’far Muhammad tarjimasi. – Tehron, 2001. – B. 40.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T harfi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – B. 164.
5. Ирхин Ю. В., Зотова Л. В. Политология. – Москва, 2000. – С. 31.
6. Авеста. – Алматы: Дружба народов; КРАМДС – Ахмед Яссауи, 1992. – С. 21–27.
7. Jumaboyev Y. O‘rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1980. – B. 24–33.
8. Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar ul-muluk). – 2-to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – B. 45–50.
9. Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar ul-muluk). – 2-to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – B. 50–60.
10. Abdullayev A. G. Sharq davlat boshqaruviga doir sotsiologik ta’limotlarning G‘arb sivilizatsion jarayonlariga metodologik ta’siri: monografiya. – Toshkent: ZEBO PRINT, 2024. – B. 108.